


## O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO`MITASI

### 2018 yilning iyul oyi uchun O`zbekiston Respublikasi iste`mol sektoridagi inflyatsiya darajasi

2018 yilning iyul oyida tovar va xizmatlar narxlari darajasi o`rtacha 0,3 %ga pasaygan (yanvar oyida inflyatsiya – 2,7 %, fevralda – 1,1 %, mart oyida – 1,1 %, aprelda – 0,9 %, may oyida – 0,8 %, iyunda – deflyatsiya 0,4%). Yanvar-iyul oylarida inflyatsiya darajasi 5,9 %ni tashkil qildi.

#### 2018 yilning yanvar-iyul oylarida iste`mol narxlari indeksi dinamikasi



*Meva-sabzavot mahsulot-lari narxining mavsumiy arzonlashishi 2018 yilning iyul oyidagi tovar va xizmatlar narxlari umumiy darajasi pasayishining asosiy omili sifatida o`z ta`sirini o`tkazdi*

*Oziq-ovqat mahsulotlari narxlari oy davomida o`rtacha 2,3 %ga arzonlashdi*

*Nooziq-ovqat mahsulotlar narxlari esa iyul oyida 1,7 %ga qimmatlashdi*

*Joriy yilning iyul oyi davomida umumiy xizmat-lar narxi o`rtacha 0,5 %ga oshdi*

*Umumiy tarzda olganda, 2018 yilning yanvar-iyul oylarida respublikaning iste`mol sektoridagi inflyatsiya darajasi o`rtacha 5,9 %ni tashkil etdi*

Joriy yilning yanvar oyida iste`mol sektoridagi narxlar birmuncha sezilarli darajada oshgan (2,7 %). Iyun va iyul oylaridagi meva va sabzavot mahsulotlari narxlarining mavsumiy omillar natijasida arzonlashishi, umumiy iste`mol narxlari darajasining pasayishiga zamin yaratdi (narxlar darajasi mos ravishda 0,4 % va 0,3 %ga arzonlashgan).


Yirik guruhlar bo`yicha qisqa va uzoq muddatli iste`mol narxlari indekslari dinamikasi quyidagi jadval ko`rinishida namoyish etilgan:

### Iste`mol narxlari indeksi

( foizda)

	2018 yil iyul			2018y yanvar-iyul 2017y yanvar- iyulga	Ma`lumot uchun			
					2017 yil iyul			2017y Yanvar- iyul 2016y yanvar- iyulga
	2018y Iyunga	2017y dekabrga	2017y Iyulga		2017y Iyunga	2016y dekabrga	2016y Iyulga	
Iste`mol narxlari indeksi	99,7	105,9	116,3	118,9	100,4	105,7	110,3	107,4
shu jumladan: tovarlar	99,5	105,1	117,4	120,7	100,0	105,6	110,3	106,9
oziq-ovqat mahsulotlari	97,7	102,3	116,4	122,3	99,3	105,1	109,4	104,3
meva-sabzavotdan tashqari oziq-ovqat mahsulotlari	100,3	106,9	117,6	120,4	102,2	108,4	111,9	107,6
nooziq-ovqat mahsulotlar	101,7	108,5	118,5	118,6	101,0	106,3	111,5	110,3
xizmatlar	100,5	108,5	111,3	111,3	101,9	105,8	110,2	109,0

## 2018 yilning yanvar-iyul oylarida iste`mol narxlari indeksi (o`tgan oyga nisbatan, %)



Yuqorida keltirib o`tilgan ma`lumotlar shuni ko`rsatmoqdaki, mamlakatning iste`mol sektorida oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining pasayishi natijasida ikkinchi marta deflyatsiya holati qayd etilmoqda. Nooziq-ovqat mahsulotlar va xizmatlar narxlarida esa aksincha, inflyatsion jarayonlar kuzatildi.

Quyidagi jadvalda alohida turdagi guruhlarining iste`mol narxlari indeksi namoyish etilgan:

## Ayrim guruh va turdagi oziq-ovqat mahsulotlarining narxlarini indeksi


(foizda)

Oziq-ovqat mahsulotlari	2018 yil iyul			2018y yanvar-iyul 2017y yanvar-iyulga	Ma'lumot uchun			
	2018y iyulga	2017y dekabr	2017y iyulga		2017 yil iyul			2017y Yanvar-iyul 2016y yanvar-iyulga
					2017y iyulga	2016y dekabr	2016y iyulga	
oziq-ovqat mahsulotlari	97,7	102,3	116,4	122,3	99,3	105,1	109,4	104,3
non mahsulotlari	100,5	108,6	116,8	114,6	100,4	103,2	102,6	101,1
go'sht, parranda go'shti va baliq	100,9	114,2	128,9	134,3	106,1	115,2	120,1	109,6
sut mahsulotlari	99,9	106,0	115,2	117,7	100,7	106,7	110,7	105,9
tuxum	93,1	75,4	99,8	115,0	100,8	102,7	118,9	115,8
yog` va moylar	100,0	101,1	107,6	113,0	100,7	109,5	113,4	112,0
meva va sabzavotlar	84,8	81,0	105,0	129,5	85,1	90,3	98,8	87,4
mevalar	87,0	118,3	164,6	156,1	78,5	90,5	82,9	74,8
sabzavotlar	85,7	56,3	77,1	113,3	96,7	87,2	106,4	92,9
kartoshka	72,5	40,9	45,2	101,2	93,2	148,7	294,7	260,8
shakar, choy va qand. maxsulotlari	99,9	99,5	109,0	113,8	100,3	107,6	113,4	111,4
alkagolsiz ichimliklar	100,8	103,8	107,0	107,1	100,8	103,7	107,4	107,2
spirtli ichimliklar	101,5	112,4	120,7	120,3	100,2	108,7	110,8	110,4
umumiy ovqatlanish	100,4	106,7	115,0	114,9	101,3	103,0	106,1	105,3

Asosiy guruhlar bo'yicha narxlarning o'zgarishi tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, noziq-ovqat mahsulotlar hamda xizmatlar narxining qimmatlashishi joriy yilning iyul oyidagi umumiy iste'mol narxlarini indeksi (keyingi o'rinlarda INI)ga 0,7 foiz

darajasida (f.d.) ta`sir etib, oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining pasayishi esa INIning 1,0 f.d.da kamayishiga olib keldi.


### 2018 yilning iyul oyida tovar va xizmatlarning asosiy guruhlari bo`yicha narxlarning o`zgarishi va ularning umumiy INlga ta`siri



### Oziq-ovqat mahsulotlarining iste`mol narxlari indeksi

Yuqorida qayd etilganidek, oziq-ovqat mahsulotlari narxlari oy davomida o`rtacha 2,3 %ga arzonlashganligi, umumiy INIning 1,0 f.d.da pasayishiga sabab bo`ldi.

**2018 yilning iyul oyida asosiy guruhlar bo'yicha  
oziq-ovqat mahsulotlari narxlari indeksi  
(o'tgan oyga nisbatan, o'sish va pasayish, %)**




**Umumiy INI o'sishidagi ta'siri– minus 1,0 f.d.**

Bozorlarning yangi hosillar bilan to'yinishi natijasida meva va sabzavot mahsulotlari narxlari birmuncha arzonlashdi. Bu esa oziq-ovqat mahsulotlari guruhi narxlari dinamikasiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatdi. Meva-sabzavot mahsulotlari, tuxum, shakar hamda sut mahsulotlarining arzonlashishi umumiy yig'ma INIning 1,2 f.d.da pasayishiga olib keldi. Go'sht, non mahsulotlari, alkagolsiz va spirtli ichimliklar, shuningdek, boshqa turdagi oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining qimmatlashishi esa INIning 0,2 f.d.da o'sishiga olib keldi.

Oziq-ovqat mahsulotlarining **asosiy guruhi tarkibiga** kiruvchi tovarlar narxlari orasida qimmatlashish borasidagi yetakchilik yorma va dukkaklilarga (o'sish 1,9 %), pasayish bo'yicha esa kartoshka, sabzavot hamda meva mahsulotlari xissasiga to'g'ri keladi (pasayish mos ravishda 27,5 %, 14,3 % va 13,0 %).

## 2018 yilning iyul oyi davomida asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining pasayishi

(o'tgan oyga nisbatan, %)



**2018 yilning iyul oyi davomida asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining qimmatlashishi**  
(o'tgan oyga nisbatan, %)



Boshqa turdagi oziq-ovqat mahsulotlarining o'rtacha narxlari darajasida jiddiy o'zgarishlar kuzatilmadi.

Joriy yilning 27 iyul holatiga iste'mol bozorida olib borilayotgan narxlar monitoringi natijasida quyidagi ma'lumotlar shakllandi:



**O`zbekiston Respublikasi bo`yicha uyushgan savdo majmualari hamda dehqon bozorlaridagi ayrim turdagi oziq-ovqat mahsulotlarining o`rtacha narxlari to`g`risida ma`lumot  
(2018 yil 27 iyul holatiga)**

(1kg, so`mda)

Mahsulot nomi	O`rtacha narx	Qoraqalpog`iston Respublikasi	viloyatlar											Toshkent shahar	
			Andijon	Buxoro	Jizzax	Qashqadaryo	Navoiy	Namangan	Samarqand	Surxondaryo	Sirdaryo	Toshkent	Farg`ona		Xorazm
Mol go`shti	36533	33095	35759	34925	38115	35520	34931	34417	37719	34338	38864	38371	36697	38800	39908
Qo`y go`shti	36906	29298	37044	32373	38808	37785	32361	36454	38188	39399	41256	39027	38194	38000	38492
Parranda go`shti	16401	17850	16452	15467	16346	15758	14933	16867	15792	17939	17069	17474	15834	13741	18094
Tuxum (10 dona)	4473	5034	4530	3926	4400	4254	3817	3388	4601	4414	4788	5043	4650	4328	5447
Piyoz	973	1167	900	927	863	941	910	885	890	780	985	1128	1058	1086	1108
Karam	1114	1346	870	1067	1223	1193	881	826	856	1293	1200	1203	767	1405	1466
Pomidor	1942	1831	2465	1911	1662	1695	2051	1640	2035	1596	1784	1730	1796	1767	3231
Sabzi	1606	1800	1044	2095	1408	1884	1840	1135	1590	1963	1499	1528	1363	1442	1902
Bodring	2179	1888	2655	2201	1877	2141	2095	2332	1782	1636	2179	2012	2629	1943	3142
Kartoshka	1347	1593	1164	1381	1146	1326	1458	1123	1235	1271	1247	1518	1341	1335	1717
Guruch	7523	5145	6815	8210	7654	7273	7763	6548	8124	8269	7688	7360	8694	7338	8446
O`simlik moyi (1 litr)	10154	9324	9979	10189	9978	9386	10084	10297	10111	11379	10598	10684	9945	9606	10594
Bug`doy uni	2858	2252	2692	3044	2746	3332	2967	2842	2546	2754	2995	3260	2854	2419	3315
Shakar	5089	5268	5294	5098	5304	5030	5020	4954	5308	5052	5010	5056	5005	5040	4803

## Nooziq-ovqat mahsulotlarining iste`mol narxlari indeksi

Nooziq-ovqat mahsulotlar narxlarining 1,7 %ga qimmatlashishi umumiy INIning 0,6 f.d.da oshishiga olib keldi.

Avtomobillar uchun yoqilg`i hamda maishiy yoqilg`i (ko`mir)dan tashqari ushbu guruhning asosiy turdagi mahsulotlari narxlari orasida sezilarli o`zgarishlar kuzatilmadi.

Ko`mir narxining qimmatlashishi yig`ma INI oshishiga 0,5 f.d.da yoki umumiy nooziq-ovqat mahsulotlari narxlarining qimmatlashishidagi hissassi 83,3 %ni tashkil etgan.

*2018 yilning 1 iyulidan boshlab, kelishuv bayonnomasiga asosan «O`zbekiston temir yo`llari» AJ «Temiryo`lyonilg`ita`min» boshqar-masining ko`mir omborxonalarini orqali byudjet tashkilotlar hamda aholiga chakana narxlarda sotiluvchi ko`mirning yangi narxlari amaliyotga joriy qilindi. Oy davomida narxlar o`rtacha 1,7 barobardan ziyodroq darajada qimmatlashdi (74,3 %).*

Asosiy turdagi nooziq-ovqat mahsulotlar guruhi narxlari o`zgarishi quyidagicha aks etgan:

### **2018 yilning iyul oyida asosiy turdagi nooziq-ovqat mahsulotlari guruhlarining iste`mol narxlari indeksi** (o`tgan oyga nisbatan, %)

<i>Nomi</i>	<i>Iste`mol narxlari indeksi</i>
<i>Kiyim-kechak</i>	<i>100,0</i>
<i>Oyoq kiyim</i>	<i>100,1</i>
<i>Gazlama va eshilgan iplar</i>	<i>100,3</i>
<i>Madaniy mollar</i>	<i>99,1</i>

<i>Qurilish mollari</i>	<b>99,6</b>
<i>Shaxsiy gigiena mahsulotlari</i>	<b>99,5</b>
<i>Avtomobillar uchun yoqilg`i</i>	<b>103,3</b>
<i>Ko`mir</i>	<b>174,3</b>

**Umumiy INI o`shidagi ta`siri – 0,6 f.d.**

Ta`sir darajasi bo`yicha ikkinchi o`rinni avtomobillarga gaz to`ldirish shahobchalari orqali sotiluvchi yoqilg`i, ya`ni, propan mahsuloti egallagan. Oy davomida uning narxi o`rtacha 19,3 %ga ko`tarilgan. Narxlar qimmatlashishining asosiy sabablaridan biri, mazkur mahsulotga nisbatan shakllanayotgan birja narxlari hamda yoqilg`i-moylash materiallari bozorida yuzaga kelayotgan holatlar propan narxining sezilarli darajada qimmatlashishiga o`z ta`sirini o`tkazdi. Hududlar kesimida ko`radigan bo`lsak, propan narxi yuqori sur`atda Qashqadaryo viloyatida (o`rtacha 1,4 barobarga), past darajada esa Sirdaryo viloyatida (8,1 %) qimmatlashgan.

Joriy yilning III choragi davomida inflyatsiya darajasini jilovlash bo`yicha ishlab chiqilgan chora-tadbirlar rejasiga muvofiq, respublikada ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish va korxonalarni modernizatsiya qilish hisobiga ishlab chiqarish hajmini oshirish va mahsulotlar tannarxini pasaytirish bo`yicha olib borilayotgan ishlar natijasida g`isht mahsulotlarining chakana narxi o`rtacha 5,0 %ga arzonlashdi. Sement narxlari esa aksincha, iyul oyida ham avvalgi oylardagi kabi o`shida davom etmoqda (oy davomida o`rtacha 2,2 %).

Quyida keltirilgan jadvalda alohida turdagi nooziq-ovqat mahsulotlar guruxlarining iste`mol narxlari indeksi aks etgan:

## Ayrim guruh va turdagi nooziq-ovqat mahsulotlarining narxlari indeksi

(foizda)

Nooziq-ovqat mahsulotlar	2018 yil iyul			2018y yanvar-iyul 2017y yanvar-iyulga	Ma'lumot uchun			
	2018y iyunga	2017y dekabrga	2017y iyulga		2017 yil iyul			2017y Yanvar-iyul 2016y yanvar-iyulga
					2017y iyunga	2016y dekabrga	2016y iyulga	
<b>Nooziq-ovqat mahsulotlar</b>	101,7	108,5	118,5	118,6	101,0	106,3	111,5	110,3
<b>Kiyim-kechak</b>	100,0	106,0	117,9	119,1	100,6	105,8	111,4	111,0
<b>Oyoq kiyim</b>	100,1	105,5	113,9	116,1	101,0	106,6	111,9	110,8
<b>Gazlama va eshilgan iplar</b>	100,3	106,6	112,8	115,2	101,8	110,4	113,9	111,8
<b>Maishiy to'qimachilik mahsulotlari</b>	100,0	106,3	115,6	116,9	100,6	105,7	109,4	109,3
<b>Madaniy mollar</b>	99,1	99,7	106,3	110,8	100,7	106,4	109,9	109,4
<b>Qurilish mollari</b>	99,6	116,9	126,8	126,8	101,4	106,6	107,1	105,8
<b>Dori-darmonlar</b>	100,0	102,7	112,0	114,2	100,0	102,9	107,6	106,9
<b>Shaxsiy gigiena mahsulotlari</b>	99,5	105,0	115,0	120,2	101,6	109,7	114,0	112,2
<b>Tamaki mahsulotlari</b>	100,0	115,2	124,0	128,1	105,8	110,6	116,6	111,1
<b>Avtomobillar uchun yoqilg'i</b>	103,3	117,4	141,3	129,9	100,0	100,0	118,1	118,1

Mamlakatning ba'zi hududlari bo'yicha kuzatuvdagi nooziq-ovqat mahsulotlarining ayrimlarida, ya'ni, shaxsiy gigiena tovarlari (shampun, tish pastasi va boshqalar) hamda televizor narxlarining arzonlashganligi kuzatilgan.

Joriy yilning iyun oyidan boshlab, statistika organlari tomonidan asosiy turdagi qurilish materiallari narxlarini monitoring qilish maqsadida, tanlanma savdo nuqtalarida alohida turdagi (turi, navi) qurilish materiallari narxlari to'g'risida ma'lumotlar shakllantirilmoqda. 2018 yil 27 iyul holatidagi kuzatuv natijalari quyidagi jadval ko'rinishida havola etilgan:

**2018 yilning 27 iyul holatiga O`zbekiston Respublikasi bo`yicha asosiy turdagi qurilish materiallari o`rtacha narxi to`g`risida ma`lumot \***

(so`mda)

Mahsulot turlari	O`zbekiston Respublikasi	Qoraqalpog`iston Respublikasi	Andijon	Buxoro	Jizzax	Qashqadaryo	Navoiy	Namangan	Samarqand	Surxondaryo	Sirdaryo	Toshkent v.	Farg`ona	Xorazm	Toshkent sh.
Pishgan g`isht (1000 dona)	691521	711154	572031	598462	798314	642917	782778	522500	783906	669286	719000	751897	565526	657273	906250
Gulqog`oz (Oboy 10 m, eni 1 m)	102826	138636	93378	134796	42444	69500	50000	110000	146717	67893	51429	160364	104333	112364	157717
Yog`och materiali (1 m.kub)	1732833	1754643	1435938	1739321	1213846	1688436	1730625	1925833	1781563	1932143	1778125	1452636	1662500	1584061	2580000
Kraska (emal 1 litr)	21801	18417	24844	20856	24446	23031	20361	17384	18969	25218	25115	22091	18816	23718	21956
Shifer (1 dona)	36008	35818	34047	37233	37885	36637	35833	33125	36438	38714	35938	37643	33611	33438	37750
Oynalar (1 m. kv)	41752	50500	34453	43472	36615	34000	40857	44583	44813	42536	32833	52080	38211	46898	42681
Alyumin va plastik profil (1 m.kv)	411793	418867	399375	358231	407692	380000	382500	438750	428750	399289	347500	493330	319737	377292	613788
TSement (1 ton.)	730037	763938	715125	709685	722308	703456	740000	721667	707500	736790	745000	729818	723997	757917	743323
Shpatlevka (1 kg)	969	933	916	816	875	1045	811	859	1022	993	1097	1158	1171	798	1071
Linoleum (1 m.kv)	40291	27991	29406	49893	49719	38000	44500	43750	40875	35821	38224	45582	51389	28850	40068
Keramik plitka (1 m.kv)	40929	33958	36933	46709	43364	35500	39813	44073	41969	34750	36575	40640	55316	35534	47877
Qum shag`al (1 m.kub)	73642	62101	57436	59385	125807	96267	22806	61104	80096	62500	31500	77589	86368	104575	103450

*\*o`rtacha narxlar turli xil omillar, jumladan, assortiment va boshqa tarkibiy o`zgarishlar natijasida shakllantiriladi*

## Xizmatlar iste`mol narxlari indeksi

Iyul oyi davomida aholi uchun xizmatlar tariflari narxlarida jiddiy o`zgarishlar kuzatilmadi va bor yo`g`i 0,5 %lik o`shish holati qayd etildi. Bu esa o`z navbatida umumiy INIga 0,1 f.d.da ta`sir etdi.

### 2018 yilning iyul oyida aholi uchun alohida turdagi xizmatlar guruhining iste`mol narxlari indeksi

(o`tgan oyga nisbatan, %)

<b>Maishiy xizmatlar</b> <b>100,7 %</b>	<b>Sport xizmatlari</b> <b>103,2 %</b>
	
<b>Haydovchilikka tayyorlash bo`yicha kurslar</b> <b>104,6 %</b>	<b>Yo`lovchi transporti xizmatlari</b> <b>100,5 %</b>
	
<b>Huquqiy tUSDagi xizmatlar</b> <b>107,0 %</b>	<b>Veterinariya xizmatlari</b> <b>107,0 %</b>



**Bank xizmatlari**  
**101,7 %**

**Dam olish xizmatlari**  
**100,6 %**



**Umumiy INI o`shidagi ta`siri – 0,1 f.d.**

EKOIH miqdorining oshishi bevosita ushbu miqdor o`lchovi bilan tariflanuvchi xizmatlar narxining ko`tarilishiga sabab bo`ldi (huquqiy tisdagi xizmatlar, veterinariya, shuningdek, alohida turdagi bank xizmatlari).

Navbatdagi jadvalda aholiga pullik xizmat ko`rsatish bo`yicha asosiy turdagi xizmatlarning iste`mol narxlari indeksi ma`lumotlari taqdim etilgan:

## Ayrim guruh va turdagi xizmatlar narxlari indeksi

(foizda)

Xizmatlar	2018 yil iyul			2018y yanvar- iyul 2017y yanvar- iyulga	Ma'lumot uchun			
					2017 yil iyul			2017y Yanvar- iyul 2016y yanvar- iyulga
	2018y iyunga	2017y dekabrga	2017y iyulga		2017y iyunga	2016y dekabrga	2016y iyulga	
Xizmatlar	100,5	108,5	111,3	111,3	101,9	105,8	110,2	109,0
Maishiy xizmatlar	100,7	107,2	113,1	111,6	100,2	102,7	104,5	104,8
Uy-joy kommunal xizmatlari	100,1	112,7	113,3	113,4	106,1	106,5	113,4	111,5
XUJMSH xarajatlari to'lovi	100,0	126,7	128,5	117,2	100,7	103,8	104,4	106,7
Sovuq suv va kanalizatsiya	100,0	124,2	127,0	124,4	107,8	107,8	116,5	113,3
Issiq suv ta'minoti	100,0	112,5	113,0	109,7	104,3	104,3	110,9	112,0
elektroenergiya to'lovi	100,0	111,9	111,9	113,1	107,0	107,0	112,3	109,8
Tabiiy gaz uchun to'lov	100,0	110,0	110,0	112,0	107,0	107,0	116,6	113,7
Suyultirilgan gaz uchun to'lov	100,0	120,0	120,0	111,5	100,0	100,0	102,9	102,9
Issiqlik ta'minoti uchun to'lov	100,0	113,7	114,2	110,4	104,5	104,5	111,9	112,0
Maishiy chiqindi uchun to'lov	102,1	110,6	119,1	116,1	100,0	108,0	115,5	116,7
Yo'lovchi transporti xizmatlari	100,5	108,4	110,7	109,7	100,7	104,6	106,4	106,2
Avtomobil tpanspopti	100,8	109,3	109,5	104,8	100,0	101,4	103,7	105,1
Temir yo'l transporti	99,4	113,1	131,2	143,8	105,7	101,5	88,1	84,5
Havo transporti	98,6	102,1	110,4	131,4	102,9	137,0	144,7	130,3
Aloqa xizmatlari	100,0	111,0	115,4	118,8	102,3	119,1	127,3	121,1
Madaniyat muassasalari xizmatlari	100,0	101,1	101,7	111,5	100,0	114,7	115,9	106,7
MTM xizmatlari	100,0	108,1	108,1	109,7	100,0	108,3	108,3	108,3
Ta'lim xizmatlari	100,7	102,6	104,7	104,0	100,0	100,1	111,2	111,4
Sport xizmatlari	103,2	107,5	111,2	108,4	101,0	102,3	104,7	104,7
Dam olish xizmatlari	100,6	117,5	117,9	116,0	100,0	110,5	110,8	111,0
Tibbiy xizmatlar	100,5	103,8	106,0	105,3	100,3	101,3	103,2	103,8
Sug'urta xizmatlari	100,0	100,0	99,7	107,0	102,0	117,1	127,0	120,9



Farg`ona viloyati bo`yicha taksi hamda yo`nalishli taksilardagi yo`l haqining qimmatlashishi natijasida yo`lovchi tashish transporti xizmatlari o`rtacha 0,5 %ga ko`tarildi (mos ravishda narxlar 3,5 % va 25 %ga oshgan). Shu bilan bir qatorda, milliy valyutamiz kursining mustahkamlanishi natijasida “O`zbekiston havo yo`llari” MAK aviatashuv chiptalari (1,4 %) va “O`zbekiston temir yo`llari” DATKning uzoq masofaga qatnovchi yo`nalishlardagi chiptalar narxi (0,7 %) birmuncha arzonlashdi.

Narxlar statistikasi boshqarmasi

230-80-36